



Received: June 3, 2025
Accepted: August 22, 2025
Available online: August 25, 2025

Nilufar Botirova

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

IDEOLOGICAL FRAMING IN POLITICAL TRANSLATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH NEWS DISCOURSE USING PARALLEL CORPORA

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot siyosiy diskursning lingvistik, pragmatik va ideologik xususiyatlarini korpus leksikografiyasi asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, siyosiy matnlarda tilning ijtimoiy-hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi vosita sifatidagi rolini ochib beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – siyosiy diskursda qo‘llaniladigan leksik birliklar, struktural birliklar va ritorik strategiyalarning korpus asosidagi tizimli tahlili orqali ularning ideologik yukini aniqlashdir. Shu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) siyosiy diskursning nazariy asoslari, xususan N.Ferklo, van Deyk, E.I. Sheygal va M.Proskuryakov nazariyalarining tahlili; (2) RB (Rakyat Bengkulu) gazetasidagi siyosiy matnlar misolida makro-, super- va mikrostrukturalarning aniqlanishi; (3) inglizcha–o‘zbekcha parallel matnlar asosida siyosiy tarjimada leksik va konseptual o‘zgarishlarning qiyosiy tahlili; (4) korpus leksikografiyasining siyosiy leksikani o‘rganishdagi metodologik afzalliklarini asoslash.

Tadqiqotda kualitativ (qualitative) yondashuv, tanqidiy diskurs tahlili (CDA), parallel matnlar tahlili, korpus asosidagi leksik-statistik metodlar qo‘llanildi. RB (Rakyat Bengkulu) gazetasining 2023–2024-yillardagi siyosiy chiqishlari, shuningdek kun.uz rasmiy platformasidan olingan ikki tilli siyosiy matnlar tahlilning asosiy manbasi bo‘ldi. Excel dasturi asosida yaratilgan mini korpus yordamida chastota, kollokatsiya, modal birliklar, agentlik realizatsiyasi va pragmatik markerlar aniqlandi.

Nilufar Botirova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: nilufarabdiyeva73@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-7860-834X

SIYOSIY TARJIMADA IDEOLOGIK FREYMLASH: PARALLEL KORPUSLAR ASOSIDA O‘ZBEK VA INGLIZ YANGILIKLAR DISKURSINING QIYOSIY TAHLILI

ABSTRACT

The primary aim of this research is devoted to the analysis of the linguistic, pragmatic, and ideological features of political discourse based on corpus lexicography, revealing the role of language as a tool for shaping socio-power relations in political texts. The main objective of the research is to determine the ideological load of lexical units, structural elements, and rhetorical strategies used in political discourse through a corpus-based systematic analysis. To achieve this goal, the following tasks were identified: (1) examining the theoretical foundations of political discourse, particularly the views of N. Fairclough, T. A. van Dijk, E. I. Sheygal, and M. Proskuryakov; (2) identifying macro-, super-, and micro-structures in political texts from the Rakyat Bengkulu (RB) newspaper; (3) conducting a comparative analysis of lexical and conceptual shifts in political translation using English–Uzbek parallel texts; (4) substantiating the methodological advantages of corpus lexicography in studying political lexis.

The study employed qualitative approaches, Critical Discourse Analysis (CDA), parallel text analysis, and corpus-based lexico-statistical methods. Political statements published in the Rakyat Bengkulu newspaper during 2023–2024, as well as bilingual political materials obtained from the official platform kun.uz, served as the primary data sources. Using a mini-corpus created in Excel, frequency patterns, collocations, modal units, agency realization, and pragmatic markers

Olingan natijalar siyosiy matnlarda ijtimoiy rol taqsimoti, “biz–ular” oppozitsiyasi, davlat tashabbuskorligini ko‘rsatishga xizmat qiluvchi ijobiy baholovchi birliklarning muntazam qo‘llanishi va tarjimada ma‘lum semantik yumshatish strategiyalarining mavjudligini ko‘rsatdi. Parallel korpuslar siyosiy mazmunning tarjima jarayonida qayta talqin qilinishini oydinlashtirdi. Bundan tashqari, tahlil jarayoni siyosiy matnlarning maqsadli auditoriyaga moslashtirilishida nutqiy strategiyalar qanday o‘zgarishini aniq ko‘rsatib berdi. Shuningdek, korpus ma‘lumotlari siyosiy diskursda ideologik aktsentlarning til vositalari orqali qanday mustahkamlanishini empirik jihatdan tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, korpus leksikografiyasi va tanqidiy diskurs tahlili (CDA) uyg‘unligi siyosiy diskursni tizimli, obyektiv va empirik asosda o‘rganish imkonini berdi hamda siyosiy lingvistika va tarjimashunoslikning kesishgan nuqtasida yangi ilmiy istiqbollar ochildi.

Kalit so‘zlar: siyosiy diskurs, korpus, parallel korpus, tanqidiy diskurs tahlili (CDA), ideologik yuk, pragmatik strategiyalar, lingvistika, siyosiy lingvistika, tarjima, siyosiy tarjima.

were identified.

The findings revealed the distribution of social roles, the “we–they” opposition, and the frequent use of positively evaluative expressions aimed at portraying governmental initiative in political texts, along with the presence of certain semantic mitigation strategies in translation. Parallel corpora clarified how political content is reinterpreted during the translation process. Moreover, the analysis demonstrated how discursive strategies are adjusted to the target audience and empirically confirmed the role of linguistic means in reinforcing ideological accents within political discourse.

In conclusion, the integration of corpus lexicography and Critical Discourse Analysis (CDA) enabled a systematic, objective, and empirical investigation of political discourse, opening new scholarly prospects at the intersection of political linguistics and translation studies.

Key words: political discourse, corpus, parallel corpus, critical discourse analysis, ideological load, pragmatic strategies, linguistics, political linguistics, translation, political translation.

KIRISH

So‘nggi yillarda tilshunoslikda tilning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy vazifalarini tahlil qilishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, til endilikda faqat aloqa (kommunikativ) vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi diskursiy hodisa sifatida ham o‘rganiladi. Ayniqsa, siyosiy nutq, ommaviy chiqishlar, rasmiy bayonotlar va xalqaro munosabatlardagi til – siyosiy diskurs doirasida izchil tahlil talab qiladi. Aslida diskurs nima? Etimologik jihatdan “diskurs” (discourse) atamasi lotincha “discursus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “suhbat” yoki “nutq” degan ma‘nolarni anglatadi [Fairclough, 2020; Fraser, 2021; Wennerstrom, 2016]. “Diskurs” lingvistik termin sifatida birinchi marta 1952-yilda amerikalik olim Zellig Xarrisning “Discourse analysis” kitobida keltirilgan [Harris, 1952]. Zamonaviy diskurs nazariyasining mustaqil fan sohasi sifatida shakllanishini asosan XX asrning 60-yillari o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davr olimlarining tilni ajralmas aloqa vositasi deb hisoblash istagi matnlarni o‘rganishda namoyon bo‘lgan. Tilshunoslik asta-sekin shakliy, formal- funksional doiradan chiqib, tilni mazmuniy, yaxlit, izchil o‘rganishi asnosida diskurs atamasi ham faol qo‘llanila boshlandi. XX asrning 90- yillari o‘talariga kelib ushbu yo‘nalishda bir qator diqqatga sazovor ishlar paydo bo‘ldi (A.G. Altunyan, M.R. Proskuryakov, E.Sheygal, V.Deyk kabi olimlar). Aynan mana shu tadqiqotlar siyosiy lingvistikaning keyingi taraqqiyotida katta o‘zgarishlarni olib keldi. 2003-yili

bu fan bo'yicha rus tilidagi ilk qo'llanma A.P. Chudinovning "Siyosiy lingvistika" kitobi yozilgan. Bu kitob keyinchalik yangidan nashr qilindi [Budaev, Voroshilova, Dzyuba, Krasilnikova, Chudinov; 2011]. Siyosiy lingvistika bo'yicha keyingi yillarda qilingan ilmiy ishlar orasida E.I. Sheygalning "Siyosiy diskurs semiotikasi" ilmiy ishi [Sheygal, 2005] bo'lib, uning nuqtai nazarida siyosiy diskurs, diskursning boshqa turlari kabi ikki o'lchamga ega: real va virtual. Real o'lchov deganda tadqiqotchi, ma'lum ijtimoiy makonda sodir bo'luvchi nutq faoliyatini, shuningdek, bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi lingvistik, paralingvistik va ekstralingvistik omillar faoliyati natijasida paydo bo'luvchi asarlar (matnlar)ni nazarda tutadi. E.I. Sheygalning fikricha, diskursning virtual o'lchovi – semiotik makon bo'lib, u verbal va nonverbal belgilarni qamrab oladi [Sheygal, 2005; 30]. Siyosiy tilshunoslik bilan shug'ullangan ayrim olimlar siyosiy lingvistikaga bog'liq bo'lgan to'rtta tarkibiy yo'nalishini ko'rsatib o'tadi [Sheygal, 2005; 22].

Diskurs tilning maxsus ishlatilish jarayoni sifatida nutq bilan bog'langan, matnlarda qayd etilgan va ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ fenomendir [Barley, 1985]. N.D. Arutyunovanning ta'rifiga ko'ra, diskurs "hayotga singib ketgan nutq". Umuman, diskursning to'rt asosiy komponenti bor: adresant (gapiruvchi), matn, adresat va situatsiya / kontekst, bular siyosiy diskursda ham o'ziga xos aniqlanadi. Adresant / gapiruvchi sifatida konkret shaxs / siyosatchi, siyosiy partiya, xususiy yoki davlat institutlari, shu jumladan ma'lum bir ijtimoiy guruhning siyosiy pozitsiyasini aks ettiruvchi ommaviy axborot vositalari chiqadi. Adresat – xalq yoki kishilarning katta guruhi, ularning ba'zida siyosiy qarashlari o'xshash bo'lishi mumkin, lekin yanada shaxsiyroq darajada unchalik farq qilmaydi. Adresatga uzatiladigan xabar (matn) ma'lum bir bilimni shakllantirish uchun yoki umumiy mentalitetga ba'zi qiymatli stereotiplarni – baho normalari va e'tiqodlarni kiritish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Boshqa tomondan, zamonaviy (70-yillarning o'rtalaridan boshlab) nutqni tahlil qilishning haqiqiy amaliyoti, birinchi navbatda, o'zaro fikr almashish orqali amalga oshiriladigan, kommunikativ vaziyat doirasida axborot oqimining shakllarini o'rganish bilan bog'liq. Shunday qilib, dialogning o'zaro ta'sirining ma'lum bir tuzilishi aslida tasvirlangan bo'lib, u boshlanishi faqat Zellig Xarris tomonidan qo'yilgan butunlay strukturalist (garchi odatda bunday deb nomlanmasa ham) yo'nalishni davom ettiradi. Shu bilan birga, nutqning dinamik xususiyati ta'kidlanadi, bu diskurs tushunchasi va statik tuzilish sifatida matnning an'anaviy ko'rinishini ajratish uchun amalga oshiriladi. "Diskurs" atamasini tushunishning birinchi shkalasi asosan ingliz tilida so'zlashadigan ilmiy an'anada keltirilgan bo'lib, unga Yevropa qit'asining bir qator olimlari kirgan.

Diskurs ijtimoiy amaliyotning bir turidir. Bu shaxsiy maktubdan gazeta xabarigacha, oilaviy suhbatdan siyosiy nutqgacha bo'lgan har qanday og'zaki va yozma muloqotga qaratilgan bo'lib, kommunikativ hodisaning bir qismini tashkil qiladi. Bunda fikrlar va his-tuyg'ular tildan foydalanish orqali yetkaziladi yoki almashinadi. Diskurs tushunchasiga lingvistik yondashuvlar va uning mazmun-mohiyatini ochib berish borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. V.E. Chernyavskaya diskurs tushunchasini matn tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, quyidagi ta'rifni

beradi: “Diskursni situatsion kontekst bilan chambarchas bog‘langan matn(lar) sifatida tushunish kerak” deb ta’kidlaydi. V.Z. Demyankov esa diskurs haqida bir nechta gapdan yoki gapning mustaqil qismidan tashkil topgan matnning ixtiyoriy qismi deb izoh beradi. Shunday qilib, diskurs matnga nisbatan kengroq tushunchadir. Yu.S. Stepanov diskursni muqobil dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog‘laydi. U, shuningdek, diskursga alohida ijtimoiy borliq ko‘rinishida namoyon bo‘lgan “til ichidagi til” sifatidagi keng lingvofalsafiy izoh beradi. Bunda diskursni shunchaki til sifatida grammatika, stil yoki leksikon kabi hisoblab bo‘lmaydi. U avvalambor o‘zida alohida grammatika, alohida leksikon, alohida so‘z ishlatilish va sintaksis qoidalari va alohida semantika mavjud bo‘lgan matn bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda diskurs alohida dunyodir. Garchi Yu.S. Stepanov diskursni matnlarda mavjudligi haqida aytgan bo‘lsa-da, uning diskursni alohida dunyo sifatida ko‘rishi diskurs matn doirasidan tashqari tushuncha deb xulosa qilishga olib keladi.

Professor V.Karasik esa “Diskurs – bu matn va kommunikativ vaziyatning birligi” deya ta’rif beradi. Debora Shafrin bu tushunchaga uch tomonlama yondashadi. Birinchi yondashuv tilshunoslikning formal yo‘naltirgan pozitsiyasidan diskursning shunchaki gap yoki so‘z birikmasi darajasidan yuqorida turadi deb hisoblaydi – *“language above the sentences or above the clause”*. Ikkinchi yondashuv diskursga *“the study of discourse is the study of any aspect of language use”* – “tilning turli-tuman ishlatilishi” sifatida funksional ta’rif beradi. Bu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifasini o‘rganishni nazarda tutadi. Uchinchi yondashuv shakl va funksiyaning o‘zaro harakatini ta’kidlaydi: diskurs – fikr *“discourse as utterances”*. Unga ko‘ra diskurs “gapdan ko‘ra kattaroq bo‘lgan lisoniy tuzilmalarning yig‘indisi emas, balki tilning qo‘llanilishini funksional tashkil qilgan, matn holiga kelgan birliklarning majmuidir” degan mulohazani beradi.

M.R. Proskuryakov “hokimiyat diskursi” (дискурс власти) tushunchasini til va hokimiyat munosabatlari kontekstida ko‘rib chiqadi. U nazarda tutadi-ki, til va nutq hokimiyatning muhim vositasi bo‘lib, unda ijtimoiy va siyosiy hokimiyat shakllari namoyon bo‘ladi [Proskuryakov, 1999]. U “siyosiy nutq madaniyati” (культура политической речи) haqidagi nuqtai nazarni ilgari suradi: hokimiyat subyektlari (masalan, siyosatchilar) nutqda ma’lum uslub, strategiyalar va ritorik texnikalarni qo‘llaydi, bular ularning hokimiyatini mustahkamlash, ijtimoiy rolini saqlash yoki kengaytirish uchun xizmat qiladi. Siyosiy diskursda faqat faktlarni berish emas, balki tinglovchilarni (yoki o‘quvchilarni) ishontirish va mobilizatsiya qilish muhim. Shuning uchun nutq turi, struktura va retorik qurilishi strategik ahamiyatga ega degan fikrlari ahamiyatga molik. U, ehtimol, siyosiy nutqning turli janrlarini (masalan, rasmiy nutqlar, davlat rahbarlarining murojaatlari) tahlil qiladi va ularning “og‘zaki va yozma” (spoken vs written) shakllarida hokimiyat diskursi qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi [Proskuryakov, 2004]. Nutq madaniyati (speech culture) nuqtai nazaridan tilni “sofligi”, mantiqiylik, etik jihatdan moslik va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lanadi. Masalan, u “sotsial va madaniy determinant” sifatida matbuot nutqini muhokama qiladi. Bundan tashqari, u “auditoriyaga ta’sir qilish” va “hokimiyatni saqlash” funktsiyalarini tahlil qiladi: nutq hokimiyat subyektlari

(rahbarlar, siyosatchilar) va ularning auditoriyasi o'rtasida kommunikativ aloqada qat'iy strategiyalarni o'rnatadi [Proskuryakov, 2013]. O'zbek tilshunosligida diskurs borasida lingvistik tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. U matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni bayon etadi: "Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Shu bilan birga, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini esa bu xususiyatdan xoli ko'rinishda tasavvur qilish biroz qiyin masala degan fikrlarni ilgari surgan [Safarov, 2008]. Yana bir o'zbek vakilasi o'z ishlarida "diskurs bu ekstralingvistik omillar bilan birgalikda uyg'un, voqelik nuqtai nazaridan qaralayotgan matn, maqsadli harakat sifatida odamlarning o'zaro munosabati va ularning ongli mexanizmlari (kognitiv jarayonlari)ning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladigan nutqdir" deb ta'kidlaydilar [Mansurova, 2023].

So'nggi yillarda siyosiy lingvistika va korpus lingvistikasining kesishgan nuqtasida yangi yo'nalish — korpus leksikografiyasi shakllanmoqda. Ushbu yo'nalish siyosiy diskursda ishlatiladigan leksik birliklarning tizimlili, chastotasi, semantik maydoni va kontekstual xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganishga imkon yaratadi. Korpus matnlarning jamlanmasi bo'lib, u mashina o'qiy oladigan formatda matnlarni lingvistik analiz qilish, tabiiy tilni qayta ishlashga mo'ljallangan vosita. Korpus qamrovi juda keng, salmoqdorlik darajasi yuqori bo'lgan tizimlashtirilgan kutubxonadir. Foydalanishga qulay, vaqtni ancha tejaydi. Elektron qidiruv tizimi jihatidan boshqa dasturlardan farq qiladi. Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakldagi ko'rinishini topib beradi. Lug'atda qaysi o'rinda ekanligini, uning variantlarini aniq ko'rsatadi. Qidirilayotgan so'zning birikish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlar qatorini, denotativ hamda konnotativ ma'nolarini belgilay oladi. So'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasini adibning yozgan asarida tasvirlaydi. Aynan shu so'zdan qaysi davrda qanday qo'llanganlik holatini o'zida aks ettirib bera oladigan zamonaviy taraqqiyot belgisidir [Sobirova, 2022].

Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmuidir. Dastlabki korpus namunasi XIII asrda Injil kitobi ustida amalga oshirgan bo'lib, uning har bir sahifadagi so'zlar satr bo'yicha qo'l mehnati bilan indekslangan [Mc Carthy M., O'Keeffe A., 2010]. Korpus, M.Abjalova ta'rifi ko'ra, turli sohalaridan olingan matnlar, so'zlar va iboralarni tizimli tarzda jamlagan elektron baza hisoblanadi. Korpus lingvistikasida "korpus" atamasi, J.Sinkler ta'rifi ko'ra, til yoki til turkumini samarali ifodalash maqsadida tashqi mezonlarga muvofiq tanlangan elektron matn bo'laklarining to'plamini anglatadi [Abjalova, 2022]. Korpus texnologiyasi – chet tilini mukammal o'rganish va amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan ilg'or metod hisoblanadi. Korpusga asoslangan yondashuv til ishlatilishi bo'yicha tarfakash bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etishi sababli, u haqiqiy til amaliyotini ifodalashda ishonchli manba sifatida qabul qilinadi [Biber, 2001]. Ushbu ta'riflardan kelib chiqib, ingliz tilini o'rganish ayniqsa foydali ekanligi ko'rinib turadi, chunki hatto tilni erkin biladigan shaxslar

ham ma'lum vaziyatlarda mos termin va iboralarni tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, bu pragmatika bilan chambarchas bog'liqdir, chunki vaziyatga mos lug'atni qo'llash nutqni mazmunli va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi.

Korpusning ixtisosligiga qarab bir nechta turlari tasniflangan: informatsion, monolingval, billingval, multilingval, parallel, qiyosiy (comparable), diaxronik (diachronic) va shu kabi boshqa bir nechta tilni qayta ishlash uchun, tilni tahrir qilish uchun, tarjimani avtomatlashtirish hamda elektron lug'atga xos dasturlarni yaratish. Parallelizm mezoniga ko'ra, korpuslar bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli toifalarga bo'linadi. Ikki tilli va ko'p tilli korpus bir xil tematik sohada ikki yoki undan ortiq tilda mustaqil ravishda yozilgan matnlarni birlashtiradi. Masalan, turli tillardagi konferensiyalar, ilmiy anjumanlar, siyosiy konferensiyalar va boshqa materiallar to'plami va boshqalar. Mazkur qiyosiy tadqiqotlar, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tarjimada elektron lug'atlar mashina tarjimasidan foydalanish jarayonining tez va samarador bo'lishiga xizmat qilish bilan birga, yangi ilmiy muammolarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni ham keltirib chiqarmoqda. Mashina tarjima tizimlari, avtomatlashtirilgan lug'atlar, terminologik ma'lumot banklarini yaratish parallel matnlarni tadqiq va tahlil qilishni talab qiladi. Buning samarasi sifatida dunyo bo'ylab parallel matndan foydalanish parallel korpuslarni tadqiq qilish va natijalarni mukammallashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu o'rinda parallel korpus bo'yicha quyidagi ta'riflarni keltirish o'rinli. Parallel korpus – tarjima matnlarining parallel elektron analogi hisoblanib, asosan ikki tilli tarjima matnlardan iborat. Dunyodagi ko'plab davlatlarda davlat tili sifatida ikki yoki undan ortiq tillar rasmiy til sifatida tan olingan, shu bois tilshunoslar, tadqiqotchilar tarjima matnlaridagi tarjima qilinadigan fragmentlardangina olingan matnlardan foydalanishni taklif qilishgan [Kopotev, 2014]. Mana shu tarzda bir tildagi matnlarning turli tildagi tarjimalari mavjud matnlar korpusi yuzaga kelgan va bu yo'nalish parallel korpusning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, ko'p tilli matn tahlili va mashina tarjimasida adekvat tarjimaga talab oshdi va bu parallel korpuslarning dolzarbligini oshirdi.

Parallel korpus (ing. *parallel corpora*) – tarjima matnlarining elektron analogi; unda asliyatdagi matn va uning bir yoki bir necha tarjimasi tizimli yig'iladi. Y.Ebeling parallel korpusga quyidagicha ta'rif beradi: "...kamida ikkita sub korporadan iborat bo'lib, ular qandaydir ko'rinishga ega parallelizmdir" [Ebeling, 1998]. Parallel korpus haqida ko'plab olimlarning turlicha qarashlari mavjud. S.Granjening ta'kidlashicha, "parallel korpus" nomlanishi ham bahs mavzusi bo'lib kelgan, chunki "qiyosiy tilshunoslar ularni tarjima korpuslari deb atashadi", bu esa muayyan chalkashliklarga sabab bo'ladi. Yanada qiziq tomoni shundaki, qiyosiy tilshunoslik vakillari orasida ham "parallel korpus" atamasini qo'llashda fikr xilma-xilligi mavjud. Xususan, S.Granje qiyosiy tilshunoslar ba'zida parallel korpusni "taqqoslanadigan korpus yoki kombinatsiyalangan tarjima korpusi deb atashlarini ta'kidlaydi. Ammo, umumiy ta'rifga ko'ra, "parallel korpuslar ona tilidagi matnlar va ularning o'rganilayotgan tilidagi tarjimalaridan iborat to'plamlardir" [Granger, 2003]. Shu o'rinda, M. Key va M. Roshayzenning fikricha, tarjimada gaplar bir-biriga mos kelishi uchun,

avvalo, soʻzlar muqobilligiga erishish muhim oʻrin tutadi, lekin ikki tilda matn soʻzlarining muqobilligiga erishish oson emas va bu muqobillik adekvat boʻlmasligi mumkin. Shunday boʻlsa, parallel korpusdagi izlangan soʻzning bir qancha matndagi maʼnolarining berilishi orqali tadqiqotning oʻrganish jarayoni osonlashadi [Ergasheva, 2023]. Texnologiya asrida yashayotganimiz va maʼlumotlar almanishuvi tezlashgani sababli bizga siyosiy matnni tahlil qilish va siyosiy diskurslarni tezda aniqlay olishimiz uchun korpusning oʻrni beqiyos. Siyosiy diskurs tahliliga mos korpus turlari: maxsus (specialized) korpus va parallel korpuslar. Maxsus korpus bu muhim turlardan biri hisoblanadi. Aynan siyosiy matnlar (nutqlar, maqolalar, intervyular, saylov dasturlari, parlament chiqishlari va boshqalar) jamlanadi. Bundan koʻzda tutilgan maqsad – siyosiy tilning oʻziga xos lugʻaviy, stilistik va pragmatik xususiyatlarini oʻrganish. Parallel korpus siyosiy sohaga oid matnlarning tarjimalarini solishtirish imkonini beradi. Bu esa oʻz oʻrnida tarjimada qanday mafkura, sematik yoki stilistik oʻzgarishlar yuz berayotganini aniqlash mumkinligini koʻrsatadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Bengkulu universiteti, oʻqituvchilarni tayyorlash va taʼlim fakulteti, Indonez tili taʼlimi yoʻnalishi oʻqituvchi olimlari olib borgan kuzatuvlariga koʻra qualitative (kualitativ) tadqiqot dizayni qoʻllanildi. Mazkur tadqiqot metodi tabiatiga koʻra tabiiy muhitda sodir boʻladigan hodisalarni hech qanday aralashuvsiz oʻrganadi hamda mazmunan batafsil, tavsifiy maʼlumotlar asosida tahlil qilinadi va maʼlumotlarning belgilari, xususiyatlari va umumiy tasvirini aniq va toʻliq yoritish maqsad qilishgan. Indoneziya davlatining viloyatlaridan birida chiqariladigan *Rakyat Bengkulu* (RB) gazetasining 2023-yil 6-noyabr, 6-dekabr hamda 2024-yil 12-yanvar va 15-fevral sonlaridagi siyosiy yangiliklar diskurs tuzilmasini tahlil qilishda T.A. van Deykning tanqidiy diskurs tahlili modeli asos qilib olishgan [Deyk, 1980].

Tadqiqotning asosiy manbalari RB gazetasining yuqorida qayd etilgan sonlarida chop etilgan siyosiy yoʻnalishdagi maqolalardan iborat boʻlib, tahlil uchun ajratilgan birliklar – soʻzlar, birikmalar, gap boʻlaklari va jumlarlar makro, super va mikrostrukturani tashkil etuvchi elementlar sifatida koʻrib chiqildi. Maʼlumotlarni yigʻish jarayoni hujjatlashtirish metodi asosida amalga oshirildi. Hujjatlashtirish – yozma manbalarni tizimli ravishda toʻplash va ular orqali zarur maʼlumotlarni aniqlash jarayonidir. Shu maqsadda RB gazetasining 2023-yil 6-noyabr, 6-dekabr hamda 2024-yil 12-yanvar va 15-fevral sonlari yigʻilib, ulardagi siyosiy matnlar maxsus tuzilgan hujjatlarni qayd etish varagʻi (document recording sheet) yordamida roʻyxatga olindi. Tahlil jarayoni kualitativ (qualitative) tahlilining oltita bosqichi asosida olib borildi:

1. kuzatish va qayd etish;
2. jadvalga keltirish;
3. tahlil qilish;
4. natijalarni sharhlash(interpretatsiya);
5. xulosalar chiqarish.

Mazkur ketma-ketlik siyosiy yangiliklar diskursini izchil, puxta va nazariy

asoslangan holda tahlil qilish imkonini berdi. “**Our**” olmoshining qo‘llanishi muallif va o‘quvchi o‘rtasida **inklyuzivlik**ni bildiradi, ya’ni umumiy milliy birlik va jamoaviy birdamlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Shu bilan birga, “**he**”, “**they**”, “**his**”, “**her**” kabi uchinchi shaxs olmoshlari takroriylikning oldini olish va jumla aniqligini saqlash uchun ishlatiladi. Stilistika – bu til uslubini o‘rganadigan soha bo‘lib, u asosan **leksik tanlovlarga** e’tibor qaratadi. T.A. van Deykning keltirgan fikrlariga ko‘ra, leksikon muallifning so‘zlarni qanday tanlashi bilan bog‘liq. RB siyosiy yangiliklarida shuni xulosa qilish mumkinki, gazeta **nozik**, **muloyim** va **umumiy tushunarli** tilni qo‘llaydi. “Nozik” – tilning yumshoq, keskin bo‘lmaganligini, “muloyim” – hurmatli va e’tiborli so‘z tanlovini, “umumiy” esa keng ommaga tushunarli, universal so‘zlardan foydalanishni anglatadi. Ushbu leksik tanlovlar RB gazetasiidagi siyosiy xabarlarining **rasmiy uslubga** egaligini ko‘rsatdi.

T. A. van Deykning (1980) tanqidiy diskurs tahlili modelini asos qilib olgan holda, siyosiy diskursning korpus leksikologiyasining ahamiyatini ochib berish uchun vositaligini keltiramiz va strukturaviy korpus sifatida excel dasturida kun. uz 2024-yil dekabridan 2025-yil sentabrigacha yig‘ilgan siyosiy sohaga oid rasmiy matnlar tahlil qilindi va ularning xususiyatlari o‘rganildi. Shu o‘rinda, korpus leksikografiyasi (korpus lingvistik tahlili asosida leksik birliklarni o‘rganish) siyosiy diskursni anglashda kuchli vosita hisoblanadi. Nazariy jihatdan, tanqidiy diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis (CDA)) maktabi vakillari siyosiy matnlardagi so‘z tanlovi va leksik birliklarni ijtimoiy kuch va ideologiya bilan bog‘laydi. Masalan, Norman Ferklo ta’kidlashicha, matnlardagi turli xususiyatlar – *xususan, so‘z boyligi, lug‘aviy birliklar va metaforalar* – matnga singdirilgan ideologiyani aks ettirishi mumkin. Ya’ni, siyosiy nutq va hujjatlarda qo‘llaniladigan atamalar, iboralar hamisha betaraf emas; ular ortida ko‘pincha ma’lum bir *g‘oya yoki manfaat* yotadi. “*Til – ijtimoiy amaliyot*” degan yondashuvga ko‘ra, siyosiy diskursdagi so‘zlar jamiyatdagi kuch munosabatlarini mustahkamlash yoki ularga qarshi turish uchun xizmat qiladi. Shu bois, *korpus asosida leksik tahlil* qilish siyosiy matnlardagi *dominant lug‘aviy tendensiyalarni* tizimli ravishda aniqlashga yordam beradi. Korpusdan olingan olinmalar (masalan, so‘z chastotasi, kollokatsiyalar) qo‘lda o‘tkaziladigan tahlilda ko‘zga tashlanmasligi mumkin bo‘lgan *muntazamliliklarni* ochib beradi. Bu esa tadqiqotchilarga siyosiy diskurs ortidagi yashirin ma’no va ideologik yukni aniqroq ko‘rishga imkon yaratadi [Fairclough, 2003].

Amaliy jihatdan, korpus leksikografiyasi siyosiy matnlarni keng ko‘lamda tahlil qilib, dalillarga tayangan xulosalar chiqarishga zamin hozirlaydi. Masalan, katta hajmdagi nutq yoki hujjatlarda qaysi atamalar eng ko‘p ishlatilgani, qanday lug‘aviy bog‘lanishlar paydo bo‘lishi yoki muayyan guruh (hokimiyat vakillari yoki OAV) tomonidan qanday so‘z tanlovi strategiyasi qo‘llanishini aniqlash mumkin. Korpus tahlili shuningdek o‘zaro qiyosiy tadqiqotlarga yo‘l ochadi: turli siyosiy arboblarning yoki davlatlar nutqidagi leksik farqlarni solishtirish orqali ularning qarash va maqsadlarini tahlil qilish mumkin. Shu ma’noda, korpusga tayangan yondashuv CDAning sifat jihatlarini miqdoriy isbotlar bilan boyitadi – bu yondashuv ba’zan *Corpus-Assisted Discourse Studies (CADS)* deb ham ataladi. Bu usul tadqiqotchiga *subyektivlikni*

kamaytirgan holda xulosa chiqarish imkonini beradi, chunki xulosa bitta matnga emas, balki katta korpusga tayanadi. Quyida keltirgan ma'lumotlarga asosan, zamonaviy tadqiqotchi J.Zao va boshqalar korpus asosida siyosiy diskursni tarjimada qanday shakllanayotganini tadqiq etgan. Ular tarjima korpusi (white paperlar ya'ni Xitoy hukumati tomonidan AQSH bilan savdo mojarosi yuzasidan e'lon qilingan rasmiy hujjatlar), yangiliklar matnlari va ijtimoiy media sharhlaridan foydalangan [Zhao; Wang, 2025]. Bu yondashuv siyosiy pozitsiyalar, ideologik ramkalar va kommunikativ strategiyalar qanday kontekstda "*qayta qurilishini*" ko'rsatgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, siyosiy diskurs va korpus leksikografiyasi ko'p o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, ko'plab korpusga asoslangan tadqiqotlar aynan shu yo'nalishga bag'ishlangan. Misol tariqasida, T.A. **van Deykning siyosiy diskurs tahlili tamoyillariga asosan** siyosiy sohaga oid matnlardagi diskursni tahlil qilish uch darajada ko'riladi:

1-jadval

T.A. van Deykning tamoyiliga asosan siyosiy sohaga oid matnlardagi diskursni tahlil qilish

<i>Makrostruktura (global ma'no)</i>	<i>Superstruktura (kompozitsion tuzilma)</i>	<i>Mikrostruktura (til vositalari)</i>
Matnda qanday asosiy siyosiy mavzu ilgari surilyapti. Siyosiy aktyorlar (xalq, hukumat, muxolifat) qanday ideologik rolga qo'yilgan. "Biz — ular" (ingroup–outgroup) oppozitsiyasi mavjudligi.	Kirish, muammo qo'yilishi, dalillar, xulosa qismi qanday qurilgan. Siyosiy xabar qanday retorik sxema orqali yetkazilgan.	Leksik birliklar, modal fe'llar, millat ideologiyasi yuklangan so'zlar. Ahamiyatga molik retorik vositalar: takror, kontrast, shaxsga oid referensiyalar. Sintaktik vositalar: passiv gaplar orqali ayblovdan qochish va hokazo.

Natijada: ushbu yondashuv matn ichidagi yashirin ideologiya va siyosiy manipulyatsiyani ochib beradi.

Birgina misol tariqasida kun.uz official rasmiy saytdan olgan siyosiy sohaga oid matnning inglizcha va o'zbekcha shaklini tahlilga torsak, "*Uzbekistan to update Customs Code and boost duty-free imports for IT and fintech growth. IT and fintech companies in Uzbekistan will be allowed to import laboratory equipment and technological installations for research and development (R&D) centers duty-free, the president announced. He also instructed the modernization of the outdated Customs Code*" va shu o'rinda o'zbekcha ko'rinishi "*O'zbekiston Bojxona kodeksini yangilaydi va IT va fintech rivojlanishi uchun bojsiz importni kuchaytiradi. O'zbekistondagi IT va fintech kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari uchun laboratoriya jihozlari va texnologik qurilmalarni bojsiz olib kirishga ruxsat beriladi, deb xabar qildi prezident. Shuningdek, eskirgan Bojxona kodeksini modernizatsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.*" Yuqorida keltirilgandek (1-jadval), **Makrostruktura**--matnning yadro g'oyasi – *modernizatsiya va iqtisodiy*

rivojlanish davlat tashabbusida ekanligi. “Prezident e’lon qildi”, “ko’rsatmalar berdi” kabi konnotatsiyalar agentlikni davlatga yuklaydi. **Mikrostruktura tahliliga asosan agent:** “President”, “he instructed” – davlat tashabbuskor sifatida ko’rsatiladi. Soʻz tanloviga (**lexical choice**): “boost”, “allow”, “modernization” – *progressiv* va *ijobiy semantik* yukni yuklaginligi yaqqol ko’rinadi. **Oʻzbekcha tarjimada** ham ayni ijobiy baholovchi birliklar saqlangan: “ruxsat beriladi”, “modernizatsiya qilish” kabi soʻzlar orqali. **Ideologik yuklama** davlat texnologik rivojlanishni faol qoʻllab-quvvatlayotgani haqidagi ijobiy baholash berilganiga guvohi boʻlamiz. Tadqiqotimiz jarayonida oʻtqazilgan mini tahlilga asosan quyidagi xususiyatlar yaqqol namoyon boʻladi:

- **ijobiy davlat tashabbuslarini legitimatsiya qilish;**
- **muammolarda agentlikni kamaytirish;**
- **siyosiy yetakchilikni integrativ “we” olmoshi orqali ko’rsatish;**
- **neytral-pessimistik framing (statistika asosida);**
- **tarjima matnlarida diskuriv ma’no asosan saqlangan.**

Kristina Shafner siyosiy diskursni tahlil qilishda tarjima masalasini alohida urgʻu bilan oʻrganib kelgan. Uning fikricha, siyosiy nutq va matnlar koʻpincha bir necha tilda parallel ravishda tarqatiladi va shu sababli tarjima jarayoni siyosiy diskursning ajralmas qismidir [Schäffner, 2004]. K.Shafner ta’kidlaydiki, siyosiy matnlarni tahlil qilishda faqat asl til bilan cheklanib qolmaslik lozim – tarjima qilingan variantlarda ham lugʻaviy va uslubiy oʻzgarishlar qanday politika va ideologiyaga xizmat qilayotganini tushunish muhim. Masalan, u siyosiy diskurs tahlili (Political Discourse Analysis (PDA)) va tarjimashunoslik bir-birini boyitishi mumkin deb hisoblaydi. Bir maqolasida u shunday yozadi: “Siyosiy diskurs koʻpincha tarjimaga tayangan holda tarqaladi. Siyosiy diskurs tahlili (Political Discourse Analysis) esa hanuzgacha tarjima fenomenini toʻliq hisobga olganicha yoʻq. Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va siyosiy diskurs tahlili yanada yaqindan hamkorlik qilishi mumkinligini” ta’kidlab oʻtadi [Schäffner, 2004]. Bu yondashuv tarjima jarayonida qabul qilinadigan lugʻaviy qarorlar (soʻz tanlovi, iboralarni moslashtirish va hokazo) “siyosiy ta’sirlar”ga ega boʻlishini koʻrsatadi [Aston Research Explorer, 2025]. K.Shafner siyosiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar orqali ideologik masalalarni yoritadi. Masalan, bir siyosiy nutqdagi shior yoki termin tarjimada oʻzgacha talqin qilinishi mumkin – tarjimon uni qanchalik adabiy yoki erkin tarjima qilishni tanlashi ortida ham siyosiy maqsadlar yotadi. U 2010-yilda S.Basnet bilan birga chiqargan asarida OAV va tarjima oʻrtasidagi aloqani oʻrganib, tanqidiy diskurs tahlili va tarjima kesishgan nuqtada tadqiqotlar olib borishga chaqiradi. Xususan, gʻoyaviy “yuk”ga ega atamalarni bir tildan ikkinchisiga oʻgirish jarayonida, tarjimon “noma’lum agent”ga aylanishi, ya’ni oʻz qarashlarini bevosita bildirmasdan, lekin soʻz tanlash orqali diskursga ta’sir koʻrsatishi mumkin [Foglia, 2013]. Demak, siyosiy diskursni korpusga asoslangan (*corpus-based*) yondashuvda tahlil qilayotganda, bir necha til korpuslarini solishtirish ham muhim – bu tarjima paytida yuzaga keladigan strategik oʻzgarishlarni aniqlashga yordam beradi [Schäffner, 2004].

Umuman olganda, Shafner fikricha korpus leksikografiyasi va tarjimashunoslik

usullarini qo‘shish siyosiy diskurs tahlilini boyitadi: bu orqali “leksik strategiyalar” (masalan, atamani yumshatib yoki kuchaytirib tarjima qilish) aniqlanadi, g‘oya va qadriyatlar qanday “eksport” yoki “import” qilinayotgani tushuniladi. Bu nazariya amaliyotda, xususan ko‘p tilli siyosiy hujjatlar (xalqaro shartnomalar, rasmiy bayonotlar) tahlilida keng qo‘llanilib, turli tillardagi matnlarda dominant diskurs elementlarini qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqotimiz ikki til bo‘lyotganiligi sabab bu o‘z-o‘zidan parallel matnlar hisoblanadi va matnlarning mini parallel korpusi yaratiladi.

2-jadval

Kun.uz saytidan olingan ikki tilli matnlar jamlanmasi

No	English	Uzbek
1.	IT and fintech companies in Uzbekistan will be allowed to import laboratory equipment and technological installations for research and development (R&D) centers duty-free.	O‘zbekistondagi IT va fintech kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari uchun laboratoriya jihozlari va texnologik qurilmalarni bojsiz olib kirishga ruxsat beriladi.
2.	Uzbekistan's largest gas producer, Uzbekneftegaz, predicts a further decline in gas production, projecting output to drop to 26.5 billion cubic meters in 2025.	O‘zbekistonning eng yirik gaz ishlab chiqaruvchisi “O‘zbekneftgaz” 2025-yilda gaz qazib olish hajmining yana qisqarishini bashorat qilmoqda va 2025-yilda qazib olish hajmi 26,5 milliard kub metrgacha kamayishi taxmin qilinmoqda.
3.	Asrorjon Askarov appointed Acting Chairman of Regional Electric Networks JSC.	“Hududiy elektr tarmoqlari”ga Asrorjon Asqarov yangi rais etib tayinlandi.
4.	A family of three dies from carbon monoxide poisoning in Bustonlik in the province of Tashkent.	Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida bir oilaning uch nafar a‘zosi is gazidan zaharlanib vafot etdi.
5.	We will reduce the poverty rate to 6% in the coming years” – Shavkat Mirziyoyev.	“Yaqin yillarda qashshoqlik darajasini 6 foizga tushiramiz” – Shavkat Mirziyoyev.
6.	Kun.uz YouTube channel surpasses 3 million subscribers	Kanalimizdagi obunachilar soni 2024 yil davomida 770 mingga ko‘payib, jami 3 milliondan oshdi.
7.	Additional bus and train services to be arranged for students on domestic routes during winter breaks.	Toshkent shahridan turli viloyatlarga qishki ta‘tilga jo‘nab ketayotgan qariyb 118 ming nafar o‘quvchining xavfsiz va samarali sayohatini ta‘minlash maqsadida hukumat tomonidan qo‘shimcha transport tadbirlari amalga oshirilmoqda.
8.	A district court in Tashkent has found two doctors guilty of professional negligence in the death of blogger Farhod Mannopov.	Yosh bloger Farhod Mannopvning o‘limida Uchtepa tuman sudi ikki shifokorni kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmagan deb topdi.
9.	Uzbekistan has appointed Ravshanbek Alimov as its new Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary to Turkmenistan.	Ravshanbek Alimov O‘zbekistonning Turkmanistondagi yangi elchisi deb tayinlandi.

10.	Several greenhouses and processing plants to be transferred to entrepreneurs.	Bir nechta issiqxonalar va qayta ishlash korxonalari tadbirkorlarga ishonchli boshqaruvga topshiriladi.
-----	-------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------

3-jadval

Shafner korpusga asoslangan yondashuvi (CBA) asosida parallel matnlar tahlili

English-O‘zbek leksik birliklari	Semantic frame in Collocations	Diskurs ta’siri
reduce / tushirish	poverty, unemployment, inflation	Hukumat ijobiy o‘zgarishlarni ta’kidlaydi (positive self-presentation)
modernization / modernizatsiya	Customs Code, infrastructure, transport	Islohot va taraqqiyot freymi (institutional discourse)
may have been caused / bo‘lishi mumkin	incident, accident, gas poisoning	Aybni agentdan uzoqlashtirish, noaniqlik (agency backgrounding)
boost / kuchaytirish	import, growth, investment, presence	Iqtisodiy rivojlanish va kuchaytirish metaforasi
guilty / aybdor	professional negligence, death, court	Huquqiy qat’iyat freymi (legal discourse)

Mazkur metod orqali til birliklarining siyosiy ideologiyani qanday shakllantirishi aniqlandi. Matnlardagi yuqori chastotali birliklar siyosiy diskursning yo‘nalishini ko‘rsatdi. Natija: **“reduce poverty”, “boost import”, “modernization”** – hukumatning ijobiy o‘zini taqdim etish strategiyasi. O‘zbekcha matnlarda **“ta’minlash”, “amalga oshirilmoqda”, “ruxsat beriladi”** – institutsional kuch, byurokratik diskurs dominantligini ko‘rsatdi. Korpus bu birliklarning tasodifiy emas, muntazam siyosiy tendensiya ekanini tasdiqladi. Qo‘llangan metodlarning uyg‘unlashuvi ishga keng qamrovli ilmiy asos yaratdi. Tahlil jarayonida parallel matnlar tarjima sifati va aniqligini oshirishda samarali manba bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, maqolada tarjima jarayonida uchraydigan birliklarning o‘zaro farqli xususiyatlarini belgilash uchun qiyosiy tahlil yondashuvi qo‘llanildi.

Parallel korpuslar bir necha tillar o‘rtasidagi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘xshashlik hamda farqli jihatlarni aniqlash uchun empirik asos bo‘lib xizmat qildi va tilda sodir bo‘layotgan hodisalarni asl matnlar hamda ularning boshqa tillardagi tarjimalari bilan bog‘langan holda tahlil qilishga imkoniyat yaratdi. Parallel matnlar va ularni tizimli taqqoslash, terminologiya va matn me‘yorlari hamda konvensiyalarni, shuningdek, morfosintaktik farqlarni tizimli tadqiq qilish uchun foydali matn bazalarini taqdim etadi. Ayniqsa, LSP (Language Specific Purpose) tarjima uchun terminologiyani aniqlash va boshqarish parallel matnlarni sifatli tahlil qilishga bog‘liq [Asqarova.M, 2024]. Avvalambor, V.Zaxarov parallel matn korpuslarini ikki asosiy turga bo‘ladi:

1. Ma’lum bir asl tilda yozilgan orginal matnlar va mazkur matnlarning boshqa bir yoki bir nechta tillarga tarjimalarini o‘z ichiga oladi

2. Bir xil tematik sohaga oid ikki yoki undan ortiq tilda mustaqil yozilgan matnlarni birlashtiruvchi korpus [Zaxarov va boshq., 2021; 27].

K.Varantolaning ta’kidlashicha, tarjimonlar o‘z vaqtining 50% gacha qismini

ma'lumotnomalarga murojaat qilish uchun sarflashi mumkin [Varantola, 2000]. Parallel korpus esa ushbu vaqtni tejashga xizmat qiladi. Tipologik yo'nalishda izlanadigan tilshunoslar orasida parallel korpuslar muayyan darajada mashhurlikka erishdi, chunki parallel korpuslar tilni taqqoslash imkonini beruvchi tabiiy matnlardan misollar olish uchun foydali manba sifatida maydonga keldi [Perkova & Sitchinava, 2016; 132]. Siyosiy diskursni o'rganishda esa bu imkoniyat yanada ahamiyatli: tadqiqotchi yoki izlanuvchi bir xil siyosiy voqea yoki bayonotning turli tillarda qanday talqin qilinganini, ideologik ma'no qanday o'zgarganini, tarjima strategiyalari orqali qanday diskursiv xususiyatlar yuzaga chiqqanini bevosita kuzatishi mumkin. Korpusga asoslangan siyosiy leksikografiya kelajak tadqiqotlarning asosiy vektori hisoblanadi. Ayni paytda katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt, avtomatik tahlil va diskurs korpuslari siyosiy tilshunoslikni yangi bosqichga ko'taradi. Shu bois parallel korpus siyosiy diskursning lingvistik, pragmatik va ideologik xususiyatlarini tez, aniq va tizimli ravishda aniqlashga yordam beradi.

XULOSA

Yig'ilgan nazariy manbalar, korpus tahlili natijalari va tanqidiy diskurs yondashuvlariga tayangan holda quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Siyosiy diskurs tilshunoslikdagi murakkab kommunikativ hodisa sifatida ijtimoiy-hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi, ideologik ma'no yuklovchi lingvistik-pragmatik birlikdir. Diskursning real va virtual o'lchamlari siyosiy matnning nafaqat tarkibiy, balki semantik va ijtimoiy qatlamlarini ham belgilaydi. Korpus leksikografiyasi siyosiy matnlarni obyektiv, dalillarga tayanib tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy metod hisoblanadi. So'z chastotasi, kollokatsiyalar, metaforalar va agentlikning lingvistik realizatsiyasini korpus orqali aniqlash siyosiy nutqning yashirin ideologik unsurlarini ochib beradi. T.A. van Deykning makro–super–mikro strukturali modeli siyosiy matnlarning konseptual tuzilmasini, aktorlar pozitsiyasini, rasmiy ritorikaning qanday qurilishini aniqlashda samarali bo'ldi. Ayniqsa, “biz–ular” oppozitsiyasi siyosiy matnlarning asosiy ritorik strategiyasi sifatida qayd etildi.

Parallel korpuslar siyosiy diskursda tarjima jarayonining muhimligini ko'rsatdi. Ingliz–o'zbek siyosiy matnlarini qiyoslash shuni namoyon qildiki, tarjima siyosiy mazmunni oddiy ko'chirish emas, balki diskursiv ma'nolarni qayta shakllantirish jarayonidir. Tarjimada leksik yumshatish, ijobiy baholovchi birliklarni kuchaytirish, agentlikni kamaytirish kabi strategiyalar kuzatildi. Tadqiqotda siyosiy nutqda institutsional kuchni ta'kidlovchi “*ta'minlash*”, “*amalga oshirilmoqda*”, “*modernizatsiya*”, “*ruxsat beriladi*” kabi birliklar muntazam qo'llanayotgani aniqlandi. Bu esa davlat tashabbuskorligini ijobiy taqdim etishga xizmat qiladi. Corpus-Assisted Discourse Studies (CADS) yondashuvi sifat va miqdoriy metodlarni uyg'unlashtirgan holda, siyosiy diskursning ideologik va semantik xususiyatlarini keng ko'lamda aniqlash imkonini berdi. Bu yondashuv kelgusida ko'p tilli siyosiy hujjatlar, rasmiy bayonotlar, xalqaro shartnomalar va OAV materiallarini tahlil qilishda muhim metodik baza bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot siyosiy diskursni chuqur tahlil qilishda korpus leksikografiyasi va tanqidiy diskurs tahlilining

samaradorligini asoslab berdi. Parallel korpuslar esa siyosiy ma'nolarning tarjima jarayonida qayta talqin qilinishini yoritishga ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot natijalari siyosiy lingvistika, tarjimashunoslik va korpus lingvistikasi kesishgan nuqtada yangi ilmiy istiqbollarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdunazarova, N. (2021). "Diskurs"ni talqin qilishga turlicha yondashuvlar. *Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar*, (4)
2. Abduraxmonova, N. (2020). *Kompyuter lingvistikasi* (Darslik). Globe Edit Publishing.
3. Abduraxmonova, N. (2021). *O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari* (Monografiya). Toshkent: Muharrir.
4. Abjalova, M. (2022). *Corpus linguistics*. Tashkent: Bookmany Print.
5. Asqarova, M. (n.d.). *Philology Matters*. Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan.
6. Aston Research. (n.d.). Political discourse analysis from the point of view of translation. Retrieved from <https://research.aston.ac.uk/en/publications/political-discourse-analysis-from-the-point-of-view-of-translatio/>.
7. Bayley, P. (1985). *Live oratory in the television age: The language of formal speeches*. Bologna: Cooperativa Libreria Universitaria Editrice.
8. Biber, D. (2001). Using corpus-based methods to investigate grammar and use: Some case studies on the use of verbs in English. In R. C. Simpson & J. M. Swales (Eds.), *Corpus Linguistics in North America: Selections from the 1999 Symposium* (pp. 101–115). Michigan: The University of Michigan Press.
9. Budaev, E. V., Voroshilova, M. B., Dzyuba, E. V., & Krasil'nikova, N. A. (2011). *Sovremennaya politicheskaya lingvistika: Uchebnoe posobie* (A. P. Chudinov, otv. red.). Ekaterinburg: Ural. gos. ped. un-t.
10. Discourse Analysis Political News in News Paper. (2025). *International Journal of Social Science and Human Research*, 8(08), 6284–6292. <https://doi.org/10.47191/ijsshr/v8-i8-63>.
11. Ebeling, J. (1998). Contrastive linguistics, translation, and parallel corpora. *Meta*, 43(4), 602–615. <https://doi.org/10.7202/002692ar>.
12. Ergasheva, G., Xaitqulov, Z., & Kuchimova, N. (2023). Parallel korpusda tarjimani avtomatlashtirish (kollokatsiyalar misolida). *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 5(52), 162–173. <https://doi.org/10.36078/1697008599>.
13. Fairclough, N. (2003). *Analysing discourse: Textual analysis for social research*. Routledge.
14. Fairclough, N. (2020). *Analyzing discourse: Textual analysis for social research* (Vol. 21). Retrieved from <http://journal.um-surabaya.ac.id/index.php/JKM/article/view/2203>.
15. Fraser, B. (2021). An introduction to discourse markers. In *New Directions in Second Language Pragmatics* (pp. 314–335). <https://doi.org/10.1515/9783110721775-021>.
16. Granger, S. (2003). The corpus approach: A common way forward for contrastive linguistics and translation studies? In S. Granger, J. Lerot, & S. Petch-Tyson (Eds.), *Corpus-based Approaches to Contrastive Linguistics and Translation Studies* (pp. 17–29). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004486638_004.
17. Harris, Z. S. (1952). Discourse Analysis. *Language*, 28(1), 1–30. <https://www.jstor.org/stable/409987>.
18. Kopotev, M. (2014). *Vvedeniye v korpusnuyu lingvistiku*. Praga: Animedia Company.
19. Perkova, N., & Sitchinava, D. (2016). On the development of a Latvian-Russian parallel corpus. In I. Skadiņa & R. Rozis (Eds.), *Human Language Technologies – The Baltic Perspective: Proceedings of the Seventh International Conference* (Vol. 289, pp. 130–135). Amsterdam: IOS Press. <https://doi.org/10.3233/978-1-61499-701-6-130>.
20. Proskuryakov, M. R. (1999). Diskurs bor'by: ocherk yazyka predvybornykh kampaniy. *Vestnik Moskov. un-ta, Ser. 9. Filologiya*, 1, 34–50.
21. Proskuryakov, M. R. (2004a). Diskurs vlasti: ocherk kul'tury politicheskoy rechi. In

- Sovremennaya russkaya rech': sostoyaniye i funktsionirovaniye: sb. nauch. tr.* SPb.: Filol. fak. SPbGU, 82–106.
22. Proskuryakov, M. R. (2004b). Yazyk vlasti: ocherk kul'tury rechi dvukh prezidentov. In *Sovremennaya russkaya rech': sostoyaniye i funktsionirovaniye: sb. analiticheskikh materialov*. SPb.: Filol. fak. SPbGU.
 23. Proskuryakov, M. R. (2013). K voprosu ob ekologii reklamnoy diskursa. In *Reklama i PR v Rossii: materialy nauch. konf.* SPb.: SPbGUP.
 24. Schäffner, C. (2004). Political discourse analysis from the point of view of translation studies. *Journal of Language and Politics*, 3(1), 117–150.
 25. Sheygal, E. I. (2005). *Semiotika politicheskogo diskursa* [Elektronnyi resurs]. RGB. <http://diss.rsl.ru/diss/02/0004/020004014.pdf>.
 26. Sobirova, N. G'. (2022). Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 1442–1450.
 27. Varantola, K. (2000). Translators, dictionaries and text corpora. In S. Bernardini & F. Zanettin (Eds.), *Corpus Use and Learning to Translate* (pp. 1–17). Bologna: CLUEB.
 28. Wennerstrom, A. (2016). *Discourse analysis in the language classroom*. <https://doi.org/10.3998/mpub.8751>.
 29. Zaxarov, V., Mengliyev, B., & Xamroyeva, Sh. (2021). *Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish*. Toshkent: GlobeEdit.
 30. Zhao, J., & Wang, J. (2025). Discursive practices in translating political discourse: Insights from white papers on China-US economic and trade frictions. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12(415), 1–11. <https://doi.org/10.1057/s41599-025-04740-z>.

REFERENCES

1. Abdunazarova, N. (2021). Different approaches to interpreting “discourse”. *Academic Research in Educational Sciences*
2. Abdurakhmanova, N.Z. (2021). Computer models of the Uzbek language electronic corpus. *Abs. DSc. thes. philol.* Tashkent: Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.
3. Abdurakhmonova, N. (2020). *Computational linguistics (Textbook)*. Globe Edit Publishing.
4. Abjalova, M. (2022). *Corpus linguistics*. Tashkent: Bookmany Print.
5. Asqarova, M. (n.d.). Philology Matters. Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan.
6. Aston Research. (n.d.). Political discourse analysis from the point of view of translation. Retrieved from <https://research.aston.ac.uk/en/publications/political-discourse-analysis-from-the-point-of-view-of-translatio/>
7. Bayley, P. (1985). *Live oratory in the television age: The language of formal speeches*. Bologna: Cooperativa Libreria Universitaria Editrice.
8. Biber, D. (2001). Using corpus-based methods to investigate grammar and use: Some case studies on the use of verbs in English. In R. C. Simpson & J. M. Swales (Eds.), *Corpus Linguistics in North America: Selections from the 1999 Symposium* (pp. 101–115). Michigan: The University of Michigan Press.
9. Budaev, E. V., Voroshilova, M. B., Dzyuba, E. V., & Krasil'nikova, N. A. (2011). *Sovremennaya politicheskaya lingvistika: Uchebnoe posobie* (A. P. Chudinov, otv. red.). Ekaterinburg: Ural. gos. ped. un-t.
10. Discourse Analysis Political News in News Paper. (2025). *International Journal of Social Science and Human Research*, 8(08), 6284–6292. <https://doi.org/10.47191/ijsshr/v8-i8-63>
11. Ebeling, J. (1998). Contrastive linguistics, translation, and parallel corpora. *Meta*, 43(4), 602–615. <https://doi.org/10.7202/002692ar>
12. Ergasheva, G., Xaitqulov, Z., & Kuchimova, N. (2023). Automating translation in a parallel corpus (using collocations as an example). *Foreign Languages in Uzbekistan*, 5(52), 162–173. <https://doi.org/10.36078/1697008599>
13. Fairclough, N. (2003). *Analysing discourse: Textual analysis for social research*. Routledge.

14. Fairclough, N. (2020). *Analyzing discourse: Textual analysis for social research* (Vol. 21). Retrieved from <http://journal.um-surabaya.ac.id/index.php/JKM/article/view/2203>
15. Fraser, B. (2021). An introduction to discourse markers. In *New Directions in Second Language Pragmatics* (pp. 314–335). <https://doi.org/10.1515/9783110721775-021>
16. Granger, S. (2003). The corpus approach: A common way forward for contrastive linguistics and translation studies? In S. Granger, J. Lerot, & S. Petch-Tyson (Eds.), *Corpus-based Approaches to Contrastive Linguistics and Translation Studies* (pp. 17–29). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004486638_004
17. Harris, Z. S. (1952). Discourse Analysis. *Language*, 28(1), 1–30. <https://www.jstor.org/stable/409987>
18. Kopotev, M. (2014). *Vvedeniye v korpusnuyu lingvistiku*. Praga: Animedia Company.
19. Perkova, N., & Sitchinava, D. (2016). On the development of a Latvian-Russian parallel corpus. In I. Skadiņa & R. Rozis (Eds.), *Human Language Technologies – The Baltic Perspective: Proceedings of the Seventh International Conference* (Vol. 289, pp. 130–135). Amsterdam: IOS Press. <https://doi.org/10.3233/978-1-61499-701-6-130>
20. Proskuryakov, M. R. (1999). Diskurs bor'by: ocherk yazyka predvybornykh kampaniy. *Vestnik Moskov. un-ta, Ser. 9. Filologiya*, 1, 34–50.
21. Proskuryakov, M. R. (2004a). Diskurs vlasti: ocherk kul'tury politicheskoy rechi. In *Sovremennaya russkaya rech': sostoyaniye i funktsionirovaniye: sb. nauch. tr.* SPb.: Filol. fak. SPbGU, 82–106.
22. Proskuryakov, M. R. (2004b). Yazyk vlasti: ocherk kul'tury rechi dvukh prezidentov. In *Sovremennaya russkaya rech': sostoyaniye i funktsionirovaniye: sb. analiticheskikh materialov*. SPb.: Filol. fak. SPbGU.
23. Proskuryakov, M. R. (2013). K voprosu ob ekologii reklamnovo diskursa. In *Reklama i PR v Rossii: materialy nauch. konf.* SPb.: SPbGUP.
24. Schäffner, C. (2004). Political discourse analysis from the point of view of translation studies. *Journal of Language and Politics*, 3(1), 117–150.
25. Sheygal, E. I. (2005). *Semiotika politicheskogo diskursa* [Elektronnyi resurs]. RGB. <http://diss.rsl.ru/diss/02/0004/020004014.pdf>
26. Sobirova, N. G. (2022). Corpus linguistics and description of parallel corpora. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 1442–1450.
27. Varantola, K. (2000). Translators, dictionaries and text corpora. In S. Bernardini & F. Zanettin (Eds.), *Corpus Use and Learning to Translate* (pp. 1–17). Bologna: CLUEB.
28. Wennerstrom, A. (2016). *Discourse analysis in the language classroom*. <https://doi.org/10.3998/mpub.8751>
29. Zaxarov, V., Mengliyev, B., & Xamroyeva, Sh. (2021). *Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish*. Toshkent: GlobeEdit.
30. Zhao, J., & Wang, J. (2025). Discursive practices in translating political discourse: Insights from white papers on China-US economic and trade frictions. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12(415), 1–11. <https://doi.org/10.1057/s41599-025-04740-z>.
- 31.